

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


2017 yil yanvar-iyun

- **E'tibor bering: 2017 yanvar-iyunda**
- Aholi soni **7.0 ming kishiga** ko'paydi.
- Tug'ilganlar soni **9.3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **2.2 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **2.8 mingta nikoh** va **0.6 mingta ajralishlar**

Doimiy aholi soni. Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2017 yil yanvar-iyun holatiga 949,8 ming kishini tashkil etib, 2016 yil yanvar-iyun oylarida 7.0 ming kishiga yoki 1,7 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 464.1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,8 %), qishloq aholisi soni 485.7 ming kishini (51,2 %) tashkil etdi.

Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yil yanvar-iyun holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumani 190,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 20,0 %ni) tashkil etib, keyingi o'rinlarda Qiziltepa tumanida 145,6 ming kishini (15,3 %), Navoiy shahri 134.6 ming kishini (14,1 %), Karmana tumanida 121.7 ming kishini (12,8 %), Navbahor tumanida 107.6 ming kishini (11,3 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil yanvar-iyun holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Demografik holat

Tug'ilish. 2017 yil yanvar-iyun oylarida 9,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,8 promilleni tashkil qilib, 2016 yilga nisbatan 0,9 promillega kamaydi (2016 yilda 20,7 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2016 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan Karmana va Xatirchi tumanlarida mos ravishda 0,4 va 0.1 promillega ko'paygani holda, sezilarli darajada kamayish Konimex (23,2 promilledan 21,2 promillega), Navbahor (22,0 promilledan 19,6 promillega), Qiziltepa (19,5 promilledan 17,2 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Navoiy viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni

	2016 yil yanvar-iyun		2017 yil yanvar-iyun	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
Navoiy viloyati	9569	20,7	9294	19,8
Navoiy sh.	1324	19,9	1269	19,0
Zarafshon sh.	843	21,7	806	20,3
<i>tumanlar:</i>				
Konimex	339	23,2	312	21,2
Qiziltepa	1390	19,5	1241	17,2
Navbahor	1153	22,0	1044	19,6
Karmana	1236	21,2	1278	21,3
Nurota	883	20,4	878	20,0
Tomdi	98	13,5	103	14,3
Uchquduq	419	23,5	418	23,1
Xatirchi	1884	20,3	1945	20,7

Demografik holat

Vafot etganlar. 2017 yil yanvar-iyun oylarida 2.2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 0.1% fobzga kamaygan (2016 yil yanvar-iyun oylarida 4,8 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2016 yilning yanvar-iyun oylarida davriga nisbatan Zarafshon shahri (4,0 promilledan 3,4 promillega), Uchquduq tumanida (4.7 promilledan 4,4 promillega) kamayib sezilarli darajada o'sishi Konimex (5.7 promilledan 7,2 promillega), Tomdi (2.9 promilledan 4.5 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Navoiy viloyati bo'yicha vafot etganlar soni

	2016 yil yanvar-iyun		2017 yil yanvar-iyun	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
Navoiy viloyati	2223	4,8	2191	4,7
Navoiy sh.	358	5.4	336	5.0
Zarafshon sh.	156	4.0	137	3,4
<i>tumanlar:</i>				
Konimex	83	5,7	106	7,2
Qiziltepa	335	4,7	316	4,4
Navbahor	278	5.3	258	4,8
Karmana	294	5,0	320	5,3
Nurota	196	4,5	231	5,3
Tomdi	21	2.9	32	4,5
Uchquduq	83	4.7	80	4,4
Xatirchi	419	4.5	375	4,0


Demografik holat

2017 yil yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 67.9%i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8.1%i o'simtalardan, 6.5%i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4.4 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1.9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,9%i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 10.3%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning 59,1%i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 4.5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4.5 %i tug'ma anomaliyalardan, 0 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 18.2%i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va 13,6%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2017 yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2017 yil yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 7,1 ming kishini tashkil etib, 2016 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,2 ming kishiga (2016 yilda 7.3 ming kishi bo'lgan) kamaygan.

Demografik holat

Nikoh. 2017 yil yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 2.8 mingta nikoh qayd etildi. Viloyat bo'yicha 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5.9 promilleni tashkil etmoqda.

Tuzilgan nikohlar soni 2016 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qiziltepa (103.5 %), Karmana (107.8%) tumanlari va Navoi (105.3%) shahriga to'g'ri kelmoqda. Xatirchi (minus 103.5%), Tomdi (minus 2.4%), Konimex (minus 3.8%) tumanlarida esa kamayish kuzatildi.

Navoiy viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2016 yil yanvar-iyun	2017 y yanvar-iyun	2016 yyanvar-iyun	2017 yyanvar-iyun
Navoiy viloyati	2827	2763	503	582
Navoiy sh.	432	455	115	157
Zarafshon sh.	235	216	53	80
<i>tumanlar:</i>				
Konimex	107	69	16	18
Qiziltepa	459	475	50	62
Navbahor	277	295	58	49
Karmana	412	444	91	78
Nurota	190	163	20	26
Tomdi	49	25	9	3
Uchquduq	111	101	17	28
Xatirchi	1555	520	74	81

Nikohdan ajralishlar. 2017 yil yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0.6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etib, 2016 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0.1 promillega (2016 yilda 1.1 promille bo'lgan) ko'paygan

Ajrimlar soni 2016 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Zarafshon (150.9 %), Navoiy (136.5 %) shaharlariga to'g'ri kelgani holda, Tomdi (33.3%), Karmana (85.7 %), Navbaxor tumanlarida (84.5 %), kamayish qayd etildi,

Demografik holat

Migratsiya. 2017 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7.0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,1 ming kishi bo'lib, 2016 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,9 ming kishiga (2016 yil yanvar-iyun oylarida minus 0.9 ming kishi bo'lgan) kamaygan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2016 yil yanvar-iyun	2017 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	6.0	6.9
Ko'chib ketganlar	6.9	7.0
Migratsiya saldosini	-0.9	-0.1

Ko'chib kelganlar: Ko'chib kelganlar soni Navoiy (1.5 ming kishi), Zarafshon shahri (1.5 ming kishi), Karmana (1.3 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Ko'chib ketganlar: Ko'chib ketganlar soni Navoiy shahri (1.9 ming kishi), Zarafshon (0.9 ming kishi), Xatirchi (1,0 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsion saldo: Migratsiya saldosining yuqori darajasi Karmana tumani (plyus 0.7 ming kishi), Zarafshon shahri (plyus 0,6 ming kishi), Xatirchi tumani (minus 0,3 ming kishi), Navoiy shahrida (minus 0,4 ming kishi) qayd etildi.

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: U.Norboyeva
(436) 230-84-38